

BOLALAR ADABIYOTINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA TARAQQIYOTI

Gulbahor Namozova Muzaffarovna

Oriental universiteti, Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bolalar adabiyotining shakllanish bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va o'zbek bolalar adabiyotining tarixiy taraqqiyoti tahlil qilinadi. Har bir bosqichda badiiy-estetik mezonlar bilan birga, tarbiyaviy va ma'rifiy jihatlarning tutgan o'rne yoritiladi. Bolalar adabiyotining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari ham ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *bolalar adabiyoti, shakllanish, taraqqiyot, ma'rifat, tarbiya, jadidlar, o'zbek adabiyoti.*

KIRISH

Bolalar adabiyoti har qanday jamiyatda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, estetik didi va intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. U nafaqat bolalarga mo'ljallangan o'qish materiallari majmui, balki o'ziga xos badiiy estetik va tarbiyaviy g'oyalarni o'zida mujassam etgan adabiy yo'nalish hisoblanadi. Bolalar adabiyotining ildizlari xalq og'zaki ijodi, qadimiy axloqiy-g'oyaviy meroslar bilan bog'liq bo'lib, ularning negizida jamiyatning ko'p asrlik tajribasi, urf-odatlar, qadriyatlar yotadi. Har bir xalqning bolalar adabiyoti uning milliy ongini, madaniy an'analarini va tarbiyaviy qarashlarini aks ettiradi.

O'zbek bolalar adabiyoti ham uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan bo'lib, uning shakllanishi bir necha asosiy bosqichlarga bo'linadi. Eng qadimiy bosqichda xalq og'zaki ijodi – ertaklar, topishmoqlar, maqollar va matallar yetakchi o'rin tutgan. Bu asarlar bolaning mantiqiy fikrlashini, tasavvurini, til boyligini rivojlantirgan, uni axloqiy me'yorlarga o'rgatgan. Ayni vaqtda, bu janrlar orqali bolaga yaxshilik va yomonlik, rostgo'ylik va yolg'on, halollik va xiyonat tushunchalari o'rgatilgan.

Keyingi bosqich – jadidchilik davrida bolalar adabiyotida mutlaqo yangi mazmun va shakl paydo bo'ldi. Jadid adiblari, xususan, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar bolalarni savodli qilish, ularda milliy g'urur va axloqiy fazilatlarini shakllantirish maqsadida she'rlar, hikoyalar, darsliklar yaratdilar. Bu asarlar orqali bolalarda ilm-fanga qiziqish uyg'otildi, milliy o'zlikni anglash hissi rivojlantirildi.

Sovet davri esa bolalar adabiyotida ijtimoiy-tarbiyaviy g'oyalarning yetakchiligini belgilab berdi. Bu bosqichda adabiyotda kollektivlik, mehnatsevarlik, sadoqat, jasorat kabi qadriyatlar targ'ib qilindi. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Xudoyberdi To'xtaboyev kabi ijodkorlar bu davr adabiyotining yetuk vakillari bo'lib, ular bolalar uchun yuksak badiiy saviyaga ega asarlar yaratdilar.

Mustaqillik davrida esa bolalar adabiyotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashgan holda, bolalarning zamonaviy ehtiyojlariga mos yo'nalishlar paydo bo'ldi.

Ekologik tarbiya, sog'lom turmush tarzi, axborot madaniyati kabi mavzular dolzarb bo'lib, yangi avlod yozuvchilari tomonidan badiiy talqin etilmoqda.

Shunday qilib, bolalar adabiyoti o'z taraqqiyoti davomida faqatgina estetik emas, balki didaktik, tarbiyaviy, madaniy va ijtimoiy vazifalarni ham bajargan. Ushbu maqolada bolalar adabiyotining tarixiy shakllanish bosqichlari, har bir bosqichning o'ziga xos jihatlari va ularning bolalar ongiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy bolalar adabiyotining yangi tendensiyalari ham ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

O'zbek bolalar adabiyoti ham uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, uning rivojlanishida xalq og'zaki ijodi, jadid adabiyoti, sovet davri va mustaqillik yillarida yuzaga chiqqan yangi adabiy oqimlar muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, bolalar adabiyoti yosh xususiyatlariga ko'ra uch guruhga ajratiladi:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar adabiyoti (2-7 yosh).
2. Kichik maktab yoshidagi bolalar adabiyoti (7-10-11 yosh).
3. O'rta va katta maktab yoshidagi bolalar adabiyoti (12-14 yosh).

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligida bog'cha tarbiyachilari asosiy rol o'ynasa, qolgan ikki guruh mutolaaasida sinf rahbari va o'qituvchilarning o'rni muhimdir. Bolalar adabiyoti kattalar adabiyotidan sujet o'zgarib turishi, voqealar xilma-xilligi, pand-nasihatga shu bilan birga yumir va hajvga boyligi bilan ham ajralib turadi. Bolalar adabiyotining shakllanish bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, sharqda ilk adabiyotlar sifatida Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub", Kaykovusning "Qobusnoma", Shayx Sa'diyning "Guliston va Bo'ston", Gulxaniyning "Zarbulmasal"i kabi mumtoz namunalarni e'tirof etishimiz mumkin. Bu asarlar pandnoma ruhidagi maqolat va hikoyatlardan iborat bo'lib, bolalarni tarbiyalash uchun yetarlicha xizmat qilgan va qilib kelmoqda. O'zbek bolalar adabiyotining barqarorlashuvi esa 19-asrning ikkinchi yarmi hamda 20-asr boshlarida ma'rifatparvar jadidlar tomonidan yangi usul maktablari ochilib, darsliklar chiqarila boshlangan davrga to'g'ri keladi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvarlar tomonidan yaratilgan darslik va o'qish kitoblari bolalar adabiyotining shakllanishida muhim qadam bo'ldi. Bundan tashqari keyingi yillarda jahon bolalar adabiyotining yorqin namunalari o'zbek tiliga tarjima qilish bir qator imkoniyatlar taqdim etdi. Jumladan, boshqa xalqlar asarlari bilan o'zbek tilidagi asarlarni solishtirish, taqqoslash imkoni paydo bo'ldi. J.Sviftning "Gulliverning sayohatlari", D.Defoning "Robinson Kruzo", G.Bicher-Stouning "Tom tog'aning kulbasi", A.S.Pushkinning "Baliqchi va baliq haqida ertak" asarlari, I.A.Krilov masallari, Tolstoy va Ushinskiyning bir qator ertaklari o'zbek bolalarining ham sevimli asarlariga aylandi.

20-asrning 20-yillarida Hamid Olimjon, Sulton Jo'ra, Shukur Sa'dulla, Quadrat Hikmat, Kavsar Turdiyeva, Po'lat Mo'min, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Hakim Nazir, Ilyos Muslim kabi o'zbek shoir va yozuvchilari bir qator asarlari bilan bolalar adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. G'afur G'ulom o'zining "Shum bola qissasi" va bir qator hajviy she'rlari orqali yumordan foydalanish mahoratini chinakamiga namoyon qildi. Shoir o'zining "Nortojining kurak tishi", "Ahmadjon yomon bola emas-u, ammo..." kabi hajviy she'rlarida kundalik hayotda uchrab turadigan muammolarni sof kulgi vositasida

bolalar tilidan talqin qiladi. Bolalarni ozoda yurishga, tana a'zolarini toza saqlashga chaqiradi.

Muncha ham chiroylisan, aziz Vatanim,
Bodomday ming ko'z bilan sevar badanim.
Sensan avval axir, sensan sevganim,
Jonim, yurak qonim, hatto shu tanim,
Bir butun holicha bari seniki.

G'afur G'ulom ushbu she'rida Vatanga sevgi izhori qilibgina qolmay, unga o'zini baxsh etadi. O'zini butun holicha Vatanga taqdim etadi. She'r o'quvchi ko'z o'ngida Vatanning bor go'zalligini namoyon qiladi, fidokorlik haqida o'ylashga chaqiradi.

O'zbek bolalar adabiyotining ilk shakllari xalq og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan. Ertaklar, topishmoqlar, maqollar, matallar va qo'shiqlar bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, ularning dunyoqarashi, til madaniyati va tafakkurini shakllantirishda muhim vosita bo'lgan.

Xalq ertaklarida yaxshilik va yomonlik to'qnashuvi, mehr va sabr, halollik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar asarda soddaligi va obrazliligi orqali o'rgatilgan. Masalan, "Zumrad va Qimmat", "Bo'ri va echki bolasi", "Tulkiga to'lagan qushlar" kabi ertaklar bolaga sodda uslubda chuqur axloqiy saboqlar beradi.

Shuningdek, topishmoqlar bolalarning fikrlash doirasini kengaytirgan, maqollar esa hayotiy tajribani nasihatlar orqali ifodalagan. Bu bosqich bolalar adabiyotining og'zaki va folkloriy asoslari sifatida qadrlanadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda paydo bo'lgan jadidchilik harakati bolalar adabiyotida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Jadid adiblari bolalarni savodli qilish, ma'naviy barkamol etib tarbiyalash va ilm-fanga qiziqishini oshirishni asosiy maqsad qilib qo'ygan edilar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid adiblari maktablar uchun darsliklar, bolalar uchun hikoyalar va she'rlar yaratdilar. Avloniy o'zining mashhur "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida yoshlarni axloqli, ma'rifatli va madaniyatli qilib tarbiyalashni eng asosiy vazifa sifatida ko'rsatadi.

Jadid adabiyotining o'ziga xos jihati shundaki, u didaktik va ma'rifiy ruhda, ammo badiiy estetik shaklda ifodalangan. Asarlarda Vatan, ona tiliga muhabbat, mehnatga rag'bat kabi g'oyalar asosiy o'rinda turadi.

1920-yillardan boshlab o'zbek bolalar adabiyoti Sovet mafkurasi ta'siriga kirib bordi. Bu davrda bolalar uchun mo'ljallangan adabiy asarlar mazmunan ideologiyaviy bo'lishi bilan birga, badiiy jihatdan ham yuksak namunalarni yaratishga intildi.

G'afur G'ulomning "Shum bola" asari bu davr bolalar adabiyotining eng yorqin namunasi hisoblanadi. Unda o'ta hayotiy obrazlar, xalqona til va kulgili voqealar orqali bola o'quvchining e'tiborini tortuvchi tarbiyaviy va ma'rifiy mazmun mujassam etilgan. Asarda o'ziga xos psixologik kechinmalar, bolalarcha soddalik bilan bir qatorda, katta hayotiy saboqlar mavjud.

Shuningdek, Hamid Olimjonning bolalar uchun yozilgan she'riy to'plamlari, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Sehrli qalpoqcha" kabi asarlari ham mazkur davr adabiyotining ma'rifiy, didaktik va badiiy yo'nalishini belgilab berdi. Bu

asarlar orqali bolalarda fantaziya, ijtimoiy ong, sadoqat, jasorat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar shakllantirildi.

1991-yildan keyin O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bolalar adabiyoti ham mafkuraviy cheklovlardan holi holda rivojlana boshladi. Bu davrda asarlarda milliy o'zlik, tarix, an'ana, mustaqil fikr, iymon-e'tiqod, insonparvarlik, ekologik madaniyat kabi mavzular asosiy o'rinni egalladi.

Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida quyidagi jihatlar dolzarb sanaladi:

- Bolalarning zamonaviy ehtiyojlariga mos yondashuv;
- Axborot asriga mos badiiy g'oyalar (texnologiya, raqamli ong, media xabardorlik);
- Oila, mehr, vatan, tabiat va insonparvarlik motivlari.

Zamonaviy adiblar – To'liqin Eshbek, Ortiq Hoshimov, Muhabbat To'xtayeva va boshqa ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlar bugungi yosh o'quvchilarning hayotiy ehtiyojlariga mos keladigan, tarbiyaviy va estetik jihatdan mukammal bo'lgan adabiy namunalardir.

Masalan, To'liqin Eshbekning “Men robot emasman” hikoyasida axborot texnologiyalarining bolalar ongiga ta'siri, insoniylik va mehr-oqibat kabi qadriyatlar bilan taqqoslanadi. Bu kabi asarlar orqali zamonaviy bolaga nafaqat o'rgatuvchi, balki fikr yuritishga undovchi adabiyot taqdim etilmoqda.

Mustaqillikdan so'ng bolalar adabiyotining rivoji davlat darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Yoshlar – kelajagimiz” tamoyili doirasida yosh avlodni milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va zamonaviy bilimlar bilan uyg'un holda tarbiyalash borasida ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. “Bolalar kutubxonasi”larining faoliyati, maktablarda badiiy adabiyot o'qitilishining kuchaytirilishi va bolalar yozuvchilarining ijodiy faoliyatini rag'batlantirish bu yo'nalishdagi amaliy ishlar jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muminova, U. Important problems of uzbek anonymity in the works of Kasghari. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIST RESEARCH JOURNAL ISSN, 2776-0979.
2. Qarshiyevna U. M. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari //Central asian journal of social sciences and history. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 336-340.
3. Ra'no C., Karshiyevna M. U. Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 117-120.
4. Muminova U. K. PHYTONYMS IN THE WORK" MAHBUB UL-QULUB" //“TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 46-50.